

Xadjamuratova M.X. – t.f.n., dotsent

Andijon davlat tibbiyot instituti

Oliy ta'limdan keyingi ta'limga e'tibor ilmiy izlanuvchilar, ya'ni aksariyat yoshlarni ilm-fan sohasida ilmiy salohiyatini ko'tarilishiga turtki bo'ldi. 1992 yil 2 iyuldagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga asosan, aspirantura, doktoranturani tugatib, dissertasiya yoqlaganidan keyin fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi va diplom berilishi belgilangan edi. 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga asosan esa, OO'Yudan keyingi ta'lim OO'Yulari va ITMLarida (tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik) belgilandi.

2013 yildan boshlab fan doktori ilmiy darajasini olish uchun doktorlik himoyasining bir bosqichli tizimi joriy etildi. Bu borada qonunchilik shakllantirildi va amaliyotda qo'llanildi. Amaliyot natijalari va jahonning ilg'or davlatlardagi islohotlarning ijobiy tajribasi bu jarayonni yanada takomillashtirishni taqozo etdi.

Natijada "oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertasiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash"[1] tizimi joriy etildi.

2017 yil 1 iyulidan: tayanch doktoranturada tahsil oluvchi shaxslarga stajyor-tadqiqotchi lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirilgan miqdorda stipendiya to'lanadi, doktoranturada tahsil oluvchi shaxslarga fan nomzodi ilmiy darajasiga ega (ilmiy unvonga ega bo'lmagan) katta ilmiy xodim lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirilgan miqdorda stipendiya[2] to'lanishi amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu yo'nalishda mustaqil izlanuvchilarni tadqiqotlarni ishlab chiqarishdan ajralmagan tartibda amalga oshirishiga ham sharoit yaratildi.

Qomusimizda belgilanganidek, "har kimga ilmiy va texnikaviy va badiiy

ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi"[3].

Ushbu norma asosida 2019 yil 30 oktyabrda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" gi O'RQ-576-sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat[3]. Qonunning 15-moddasiga ko'ra, ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarning huquqlari kafolatlangan. Qonunchilik asosida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni mehnatiga haq to'lanadi, haq to'lanadigan mehnat ta'tili hamda ijodiy ta'til beriladi. Shuningdek, 48 ish kunlik haq to'lanadigan yillik hamda moddiy yordam sifatida mehnat ta'tili beriladi.

Shu tariqa iqtidorli yoshlarni ilm-fan sohasida izlanishlarga yo'naltirilib, ijtimoiy himoya qilindi. Yoshlarni ilm-fanga jalb qilinishi ularni iqtidorlarini namoyon etishiga keng yo'l ochdi, natijada muassasalarning ilmiy salohiyati ko'tarilib bordi, ularni kashfiyotlaridan respublikaning har sohada innovasion rivojlantirishga, shuningdek yetuk kadrlarni tayyorlash jarayonini tezlashishiga sabab bo'ldi.

Amerikalik iqtisodchi Edvard Denissonning baholashicha, ishchi kuchi sifatining yaxshilanishi kapital sarf-xarajatlari omili bilan deyarli bir xil. Amerikalik iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, 17 yil va undan ortiq davr mobaynida ta'lim olgan xodimlar 12 yil ta'lim olganlarga nisbatan 2 baravar ko'proq yakka tartibda daromad oladi[4].

Har qanday muvaffaqiyatlar zamini sohadagi innovasion yondoshuv va uni harakatga keltiruvchi huquqiy asos hisoblanadi. Darvoqe, mustaqillik yillarida ta'lim tizimida 3 marta qaytadan qabul qilingan qonunlar yoshlarni har tomonlama himoya qilish, iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan zamon talablariga mos innovasion siyosat mahsuli sifatida o'zining samarasini berdi. Ushbu qonunlar bir-biridan farqli xususiyatga ega.

Chunonchi, Yangi O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi (23.09.2020) qonunini 36-moddasiga ko'ra: "Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovasion

faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovasion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi". Farqli xususiyatlardan yana biri shunda namoyon bo'ladiki, qonunga muvofiq davlat tomonidan olimlar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan natijalarni amaliyotda qo'llash, shuningdek, oliy ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish imkoniyati yaratib beriladi. "Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovasion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin"[5].

Har qanday davlatni jadal rivojlanishini ta'minlash uchun ilm-fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy innovasion g'oyalarni mamlakatning barcha soha va tarmoqlariga joriy etish muhim hisoblanadi.

Respublikada ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda. Xususan, 2014-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'laridan ilmiy-amaliy va innovasion loyihalar hamda ishlanmalarni moliyalashtirish uchun qariyb 800 milliard so'm ajratilib, ularning natijalariga ko'ra, ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari tomonidan 700 dan ortiq ixtiro patentlashtirildi[6].

2017-2021 yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini mustahkamlash va innovasion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturni qabul qilishdan maqsad ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, keyingi ilmiy-innovasion faoliyat uchun qulay muhit yaratishdan iborat. Shu maqsadda fan va texnologiyalar sohasida infratuzilma yo'lga qo'yildi hamda "innovasion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" tuzildi.

2020 yilda "oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani tashkil"[7] qildi. "So'nggi 3 yilda 1 693 nafar professor-o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9 636 nafarga yetdi

(shundan 2 130 nafari fan doktori (DSc), 7 506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishildi"[7].

Xullas, davlatning innovatsion siyosati natijasida oliy ta'limdan keyingi ta'limni qonunchilik asoslari mustahkamlandi. Ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi joriy etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Таълим тўғрисида. 24.09.2020. ЎРҚ-637-сон. / <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида. 16.02.2017. ПФ-4958-сон. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 8-сон, 106-модда.
3. Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида. 30.10.2019. ЎРҚ-576-сон. / <https://lex.uz/docs/4571490>
4. Кэмпбелл Р. Макконнелл, Стенли Л. Брю. Экономикс. Том I. – Москва, Республика, 1982. – 171, 384- б. // Ўзбекистон ёшлари: ижтимоий қиёфа. – Тошкент, 2008. – Б. 35-36.
5. Таълим тўғрисида”. 24.09.2020. ЎРҚ-637-сон. /<https://lex.uz/docs/5013007>
6. Илмий ва илмий-техникавий фаолият натижаларини тижоратлаштириш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 14.07.2018. ПҚ-3855-сон. / <https://lex.uz/docs/3823583>
7. 2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида. 21.09.2018. ПФ-5544-сон. / <https://lex.uz/docs/3913188>